Yashil iqtisodiyot global miqyosda barqaror rivojlanish paradigmasiga aylandi. Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarida “uglerod izi”ni kamaytirish va “yashil standartlar”ni ilgari surish orqali xalqaro savdo munosabatlarida yangi cheklovlar va talablar joriy etmoqda. Bu tendensiya global ta’minot zanjirlariga ta’sir etar ekan, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportida iqtisodiy xavflar va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Bu milliy iqtisodiy oldida turgan ichki va tashqi taxditlar bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Qishloq ho‘jaligi maxsulotlarini eksport qilish yuzasidan ko‘plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz qishloq ho‘jaligi maxsulotlari eksportini mazmunan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur” [1]. Mamlakat o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun masuliyati va javobgarligini hisobga olgan holda, yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globalashuv sharoitida davlatning tashqi savdo faoliyatida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nazariyasi va uslubiyatini tadqiq etgan xorijlik olimlar qatorida B.G.Klayner, G.A.Saymon, G.Xaken U.B.Artur R. Mayerson, E.Maskin, Y.A.Shumpeter, A.Yu.Chalenko K.E.Shennon kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan O.B.Damaskin, D.K. Dyachkovskiy, A.V.Kozlova, Ye.A.Kolesnichenko, M.Ya. Kornilov, V.V.Krivorotov, V.S.Pankov, V. K.Senchagov, A.I.Tatarkin, D.V. Tretyakov va boshqalar ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekiston Respublikasida tashqi va ichki tahditlar sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Abulqosimov X.P. Rasulev T.S., Mamatov A.A., Vaxobov A.V., Jo'rayev T.T., Tursunov B.O. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

“Davlatning iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingan va institutsional jihatdan qayd etilgan, chunki uzoq vaqt davomida davlat suveren huquqlarning yagona egasi sifatida qabul qilingan edi. 1934 yil iyun oyida AQSH Prezidenti F. D. Ruzvelt dunyoda birinchi marta “Iqtisodiy xavfsizlik qo'mitasini tashkil etdi[2].

Iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional nazariyasi asoschisi Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlab unga ko'ra “evolyutsion” tushunchasi “institutsional” tushunchasi bilan mazmun va ma'nosi bir xil bo'ladi deb ta'kidlaydi[3].

Rus olimi D.V.Gordiyenkoning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik milliy xo'jalikning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalangan holati bo'lib, bu holat jamiyatning izchil rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi[4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor Abulqosimov X.P. “Iqtisodiy xavfsizlik mamlakat manfaatlariga ichki va tashqi tahditlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlik o'z ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, va ijtimoiy xavfsizliklarni oladi” deb baho bergan[5]. Professor Tursunov B.O. “iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustaxkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi” deb baho berilgan[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellash, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi

TAXLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlangan sari, mamlakatga chetdan kirib keluvchi import tovarlarining ham soni ortib boradi. Bunda kirib kelayotgan har bir tovarning qonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilayotganligi, aholining salomatligiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini bilish mamlakat uchun muhim sanaladi. Bu o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. Aslini olganda, iqtisodiy xavfsizlik ham qaysidir ma'noda davlatning iqtisodiy xavfsizligining bir bo'laki hisoblanadi.

Iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish davlatning strategiyasi siyosati va iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. U O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini, milliy boyligini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishni ko'zda tutadi. Ushbu konsepsiya bu boradagi siyosatni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ya'ni, iqtisodiyotning “yashillashuvi” omillari milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, shuningdek, tahdid manbai sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu holat O'zbekiston korxonalari va iqtisodiyotida “yashillik” darajasi yetarli emasligi sababli turli cheklov choralarning joriy etilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, 2021 yil 14 iyulda Yevropa komissiyasi iqlim, energetika, yerdan foydalanish, transport va soliq siyosatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan takliflar to'plamini qabul qildi. Ushbu chora-tadbirlar 2030 yilgacha issiqxona gazlari sof chiqindilarini 1990 yil darajalariga nisbatan kamida 55% ga kamaytirishni nazarda tutadi[7]. Ushbu to'plamning muhim elementlaridan biri «uglerod solig'i» (aslida – boshqa davlatlardan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga import qilinadigan tovarlarga bojxona boji) joriy etilishi hisoblanadi. Bu masalalar maxsus ekologik reja doirasida tartibga solinadi. Ushbu mexanizm 2026 yildan to'liq kuchga kiradi va O'zbekiston kabi eksportchi mamlakatlarning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi.

Transchegaraviy soliq joriy etilgan taqdirda, O'zbekiston eksportchilari uchun qo'shimcha soliq yuklamasi keskin oshishi mumkin bu eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligiga katta taxdit bo'lib hisoblanadi. Transchegaraviy soliq eng katta zararni O'zbekistonning rangli metall, sanoat va qishloq xo'jalik maxsulotlari eksporti raqobatbardoshligiga katta salbiy ta'sir qilib uning eksport imkoniyatlarini cheklaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining Yevropa Ittifoqi uglerod solig'i natijasida ko'radigan zarari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarning yagona manbasi emasligini qayd etish lozim. Hozirgi global tendensiyalardan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiy hamkorlari bo'lgan Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlar tomonidan yashil iqtisodiyot talablarini kuchayishi yangi tahdidlar paydo bo'lishi ehtimoli ham mavjud. "Milliy iqtisodiyotni "yashillashtirish" tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirish, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi"[8]. Jahonning boshqa davlatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlanishi va ekologik qishloq xo'jalik mahsulotlariga ta'labni kuchayishi natijasida O'zbekiston tashqi savdosiga va uning ortidan, davlat budjeti daromadlariga hamda milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sirini aniqlash uchun, biz O'zbekistonning eng muhim eksport tovarlari tarkibini va asosiy import qiluvchi davlatlarni ko'rib chiqamiz.

Respublikada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024 yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd AQSH dollariga yetdi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi. TSAda eksport hajmi 26 948,2 mln AQSH dollariga (8,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 38 985,8 mln AQSH dollariga (0,8 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -12 037,6 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,9 %), Rossiyada (17,6 %), Qozog'istonda (6,5 %), Turkiyada (4,5 %) va Koreya Respublikasida (3,0 %) qayd etilgan. Sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi, logistika infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati dolzarb masalalardir. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yangi bozorlarga chiqish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. O'zbekiston 2030-yilga kelib tovar va xizmatlar eksportini 45 milliard AQSH dollariga yetkazishni maqsad qilgan bo'lib, bu ko'rsatkichga erishish uchun eksport geografiasini kengaytirish hamda yangi bozorlarga chiqish zarur[9].

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 756 taga yetdi va ular tomonidan 19 467,6 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish, ichki bozorni rivojlantirishga imkon bersada, u bir qator davlatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Bulardan biri – tashqi savdo aylanmasida tadqiq etilayotgan davrda eksportga nisbatan import ulushining yuqoriligidir. Bu mamlakatga tashqi savdo aylanmasi orqali mamlakatga kirib kelayotgan valyuta tushumlariga nisbatan, import sababli chiqib ketayotgan valyutaning ulushi yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu bugungi jahon iqtisodiyotini globallasuvi sharoitida davlatning oziq-ovqat xavfsizligi uchun zarur bo'lgan erkin valyuta mablag'larini kamayishiga olib keladi. Ikkinchidan importning yuqoriligi bozorlardan mahalliy tovarlarni siqib chiqarishi va ko'pgina korxonalarning faoliyatini murakkab moliyaviy holatga keltirib qo'yishi mumkin.

1jadval. O'zbekiston Respublikasi eksportining tovar tarkibi 2017-2024 yillar[10].

№		2017	2018	2020	2022	2024
1	Jami eksport	100	100	100	100	100
2	Paxta tolasi	5,3	1,6	-	-	-
3	Oziq-ovqat mahsulotlari	5,7	7,9	9,0	8,4	9,8
4	Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	6,9	6,5	5,4	6,7	6,5
5	Energiya va neft mahsulotlari	14,2	19,1	4,6	6,6	-
6	Qora va rangli metallar	5,9	8,4	38,6	31,3	27,8
7	Mashina va asbob uskunalari	1,8	1,5	3,0	5,1	4,5
8	xizmatlar	25,8	21,7	13,2	20,5	26,7
9	boshqalar	34,4	33,3	26,2	21,4	24,4

2024-yilda O‘zbekistonning yalpi eksportda qora va rangli metallar eksporti 27,8%ni va oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 9,8%ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki respublika eksportining 37,6%dan ko‘prog‘ini xom-ashyo mahsulotlari tashkil etadi. “O‘zbekistonning eksport salohiyati hozirgi kunda asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xomashyo resurslariga bog‘liq. Buni qisqartirish uchun mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish muhim. Bunda tayyor mahsulotlar, qayta ishlangan oziq-ovqatlar va yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish hamda an‘anaviy Rossiya va MDH davlatlaridan tashqari Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa va Afrika bozorlarini o‘rganish va eksport ko‘lamini yanada oshirish lozim” [11].

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasida xom ashyo eksport modelining ustunligi, uning iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslariga bo‘lgan taxdit sifatida o‘ziga hos bir qator muammolarni keltirib chiqaradi:

Makroiqtisodiy barqarorlikning jahon xom-ashyo, energetika, qora va rangli metallarning narxlapiga bog‘liqligi, bu esa eksport tarkibida xom-ashyo, energetika, qora va rangli metallar ulushining oshishiga bevosita mutanosib ravishda ortib boradi. Eksport tarkibida xom-ashyo, energetika, qora va rangli metallarning ulushi 2017-yildagi 11,6%dan 2024-yilda 37,6%ga oshdi. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi YAIMni o‘sish sur‘atlarining pasayishi ham qisman jahon narxlapining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, qora va rangli metallarning narxi budjetni shakllantirishda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning cheklangan zaxiralari tufayli xom ashyo eksport modelini uzoq muddatli rivojlanishning mumkin emasligi. Ba‘zi ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonning neftning geologik zahiralari — 5 mlrd tonna va tabiiy gazning geologik zaxiralari – 5 trln. kub metrdan ortiq. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma‘lumotlariga ko‘ra, resurs iste‘molining hozirgi tendensiyalari va hajmlari davom etsa, O‘zbekistonda tabiiy gaz va ko‘mir zahiralari keyingi 20-30 yil davom etadi, neft zahiralari esa deyarli yaroqsiz holatga kelishi mumkin[12]. Shu bilan birga, tog‘-ko‘n kompaniyalari mavjud konlarni rivojlantirishni afzal ko‘radilar, chunki geologik tadqiqotlar juda muhim investitsiyalarni talab qiladi.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan ichki bozorga xizmat qilishi bilan tavsiflanishidir. O‘zbekiston Respublikasi eksport tarkibida yuqori fan sig‘imli tarmoqlar va yuqori texnologiyali sanoatni zaif rivojlanishi, natijasida texnologiyalar eksporti mavjud emas. O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tizimli chetga og‘ishlaridan biri bu mamlakatda bir dollar xom ashyo birligiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymatning juda past ekanligidir: AQShda bu 10 dollarga teng, O‘zbekistonda esa, 2 dollar.

Jahonning rivojlangan davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlanishi O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi eksport salohiyatiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasiga ham katta ta‘sir qilmoqda. O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik tarmog‘inini rivojlanishiga qator tahdidlar to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi qishloq xo‘jalik ekin maydonlarining qisqarishiga va uning butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Aksariyat qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining moddiy-texnik bazasining jismoniy va ma‘naviy eskirish darajasining yuqoriligi, agrosanoat ishlab chiqarishining rivojlanish sur‘atlarining pasayishiga va ishlab chiqarish salohiyatining qisqarishiga olib kelmoqda.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi elementlari ichida oziq-ovqat xavfsizligi alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiyotning bosh maqsadi inson va uning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini, shu jumladan, oziq-ovqat ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Oziq-ovqat ehtiyojini qondirish davlatning eng ustuvor birlamchi maqsadlaridan biri hisoblanadi. “Oziq-ovqat xavfsizligi bu iqtisodiyotning shunday holati bo‘lib, bunda jahon bozorlari tebranishlaridan qat‘iy nazar bir tomondan, ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlarga mos miqdorlarda, ikkinchi tomondan tibbiy me‘yorlar darajasida iste‘molni qondirish uchun shart-sharoit yaratilgan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash kafolatlanadi” [13]. Inson uchun hayotdan maqsad faqat oziq-ovqat iste‘mol qilish emas, balki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy ehtiyojlar ham mavjud. Biroq, inson o‘zining yuksak maqsadlariga erishish uchun avvalo oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi talab etiladi. Shuning uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash insonning iqtisodiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga talab yuqori. Agrologistika xizmati, meva va sabzavotlarni xalqaro yashil iqtisodiyot standartlari asosida qadoqlash, chet eldagi xaridorlarga jo‘natish talab darajasida emas. Shu sababli standartlarga e‘tibor qilmaydigan davlatlarga arzon narxiga sotilmoqda. Chet ellarga jo‘natish bilan bog‘liq muammolar sababidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati buzilib, is‘temolga yaroqsiz holga kelib qolyapti. Yuqori sifatli va xavfsizlik ko‘rsatkich talablariga javob beradigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirib va yetkazib berilsa, jahonning har qanday mamlakatiga eksport qilish imkoniyati paydo bo‘ladi[14].

Global iqlim o‘zgarishlari va iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, dunyo bozorida yuqori daromad olish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarida turli antibiotiklar, gormonlar va inson salomatligiga zararli komponentlar keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Bu holat xavfli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga, shuningdek, o‘simliklar zararkunandalari va turli xavfli viruslarning tarqalishiga olib kelmoqda. Ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlarini asosan kichik dexqon-fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqariladi, chunki ekologik toza dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan

keng miqyosda foydalanilmagani samaradorlikni pasaytiradi. Bu O'zbekiston Respublikasidagi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun asosiy "imkoniyatlar darchasi" dan biri bo'lib, qishloq joylarida kichik dexqonfermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Organik ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyalari dunyoning 180 dan ortiq mamlakatlarida dolzarb bo'lib, organik mahsulotlar turli obyektiv sabablarga ko'ra aholining ko'plab qatlamlari orasida ommalashib borayotgani tufayli bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda. Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishi nafaqat aholini ekologik toza oziq-ovqat bilan ta'minlanishidan, balki tuproqning tabiiy xususiyatlarini tiklash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Organik mahsulotlar bozori eng yuqori rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Kanada va Italiya) dunyodagi organik mahsulotlarga bo'lgan talabning 7% ni ta'minlaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari yetakchi hisoblanib, organik mahsulotlar bozori aylanmasi 44,7 milliard yevroni, ya'ni umumiy jahon organik bozorining 42 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rinlarni Germaniya (12,0 mlrd. yevro) va Fransiya (11,3 milliard yevro) egallagan[15]. Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda atrof-muhitni ifloslantirmaydigan, tabiiy muvozanatni buzmaydigan, insonlarga va boshqa tirik mavjudotlarga zarar bermaydigan va ishlab chiqarishdan iste'molga qadar bo'lgan barcha jarayonlar nazorat ostida va har bir bosqich nazorat qilinadigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish usuli qo'llaniladi.

"Organik ishlab chiqarish - bu ekologik muvozanat va biologik xilma-xillikni mustahkamlashga qaratilgan barqaror dehqonchilik yondashuvi. U tabiiy jarayonlar va materiallardan foydalanishni afzal ko'radi"¹. Iste'molchi esa aynan shuni istaydi. Ya'ni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining tabiiy tuproq unumdorligini saqlash vazifalari bilan iste'molchilarning ekologik xavfsiz, sog'lom oziq-ovqat mahsulotlarini olish maqsadi uyg'unlashadi. O'zbekistonda ham organik mahsulotlarni yetishtirish va bozorlarni tashkil etish uchun tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar (zaharli moddalar bilan zararlanmagan ekin maydonlari, genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan holi mintaqalar) yuqori desak mubolag'a bulmaydi, lekin ushbu sohada ilmiy izlanishlarning kamligi, qishloq xo'jaligi faoliyatini tartibga solish va organik oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qonunchilikning yaratilmaganligi, organik qishloq xo'jaligini rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Aytib o'tish joizki, 2018-yil 17-oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978-sonli karorlarida meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilish tizimini takomillashtirish va "Global GAP", "Halal" va "Organik" sifat standartlarini joriy etishni jadallashtirish borasida bir qator vazifalar yuklatilgan[16]. Dunyodagi barcha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun mintaqaviy talablar va qonunlarga moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining global o'zgarishi, iste'molchilarning daromad darajasi hamda davlat siyosati oziq-ovqat bozoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar barqarorlik, shaffoflik va innovatsiyaga e'tibor qaratish orqali ushbu dinamik bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishlari mumkin. Muvaffaqiyatga erishish uchun mintaqaviy farqlarni o'rganish, ularga moslashish, iste'molchilar didiga muvofiq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda global ekologik muammolar talabiga javob berish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ham respublikamizda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish sohasini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda[17]. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi 18.11.2020 yildagi "Organik mahsulotlar va xom-ashyolar hamda organik-mineral o'g'itlarning xavfsizligiga doir ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 729-son qarorni qabul qildi. Qaror bilan Organik mahsulotlar va xom ashyolarni ishlab chiqaruvchilar reyestrini shakllantirish hamda yuritish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Organik va organik-mineral o'g'itlarning xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament tasdiqlanib, u ushbu mahsulotlarning xavfsizligiga, ishlab chiqarishga, tashishga, saqlashga, yo'q qilishga, qayta ishlashga hamda sotishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va 2022-yil 1-maydan amalga kiritiladi[18].

Organik qishloq xo'jaligi tadqiqotlari instituti va Organik qishloq xo'jaligi harakati bo'yicha Xalqaro Federatsiyasining Jahon organik qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha 2019-yildagi nashrida O'zbekiston Respublikasi meva yetishtirish bo'yicha qulay sharoitga ega bo'lgan dunyodagi 10 ta davlat qatoriga kiritilgan va respublikamiz organik meva ishlab chiqarish uchun qulay yer maydonlariga ega ekanligi qayd etilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, qulay sharoit va imkoniyatlar mavjudligiga qaramasdan, respublikamizda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmayotganligi nafaqat atrof-muhitga, insonlar salomatligiga, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga, balki hududlarning eksport salohiyatini oshirish va geografiyasini kengaytirishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1 Ахоров Ф. Барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш: Ўзбекистонда экологик деҳқончилик ва органик маҳсулотлар етиштиришга ўтиш. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. Илмий электрон журнал. 2024. №3. Б.222-229.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta‘minlash, mahsulot ishlab chikaruvchilar va eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash, tarmoq eksport salohiyatini rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bozor kon'yunkturasi, meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash asosida olingan mahsulotlar bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlab chikaruvchilari axborot ta'minotining yagona mexanizmini joriy qilish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq holatga keltirish uchun qayta ishlovchi korxonalarda eksport qilinadigan mahsulotlarni sertifikatsiyalash dasturini ishlab chiqish;

jahon talablariga mos keladigan barcha logistik zanjir mahsulotlarni o'rash va idishlarga joylash, tovarning transport hujjatlarini rasmiylashtirish, transportlarda tashish, saqlash, sotish va tovar-pul munosabatlari bo'yicha, ishlab chikaruvchilarning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, meva-sabzavot mahsulotlari eksportining yagona va soddax mexanizmini joriy etish va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining yanada rivojlanishi kelajakda bu korxonalarning yirik ishlab chikaruvchilarga aylanishiga, nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham yuqori sifatli texnologik innovatsiyalarni qo'llagan holda raqobatbardosh mahsulotlarni sotish imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish jarayoni, O'zbekiston uchun xalqaro savdo cheklovlari, eksport bozorlariga kirishda texnik to'siqlar, va moliyaviy resurslardan ajralib qolish xavflarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga to'liq integratsiya — nafaqat ekologik, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ham asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси - Тошкент. // Халқ сўзи, 2020 йил 29 декабрь.
2. Маматов А.А., Жўраев Т.Т., Асатуллаев Х.С. Ташқи ва ички таҳдидлар шароитида минтақа иқтисодий хавфсизлик механизмини такомиллаштириш. Монография. ТМИ. 2023 й. 165 б.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. - 2-е изд. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. - С.95.
4. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. -М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. -С.8.
5. Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.: "Академия", 2012 - Б.22.
6. Турсунов Б.О. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: "Инноватсион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи" 2021 йил. - Б.432.
7. [хтtps://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip](https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip).
8. Асқарова М.Т., Жамолов Ж.Ж. Яшил иқтисодиёт. (Дарслик). - Т.: "Инноватсион ривожланиш матбуот-матбаа уйи" 2022. 267.б.
9. Йўлдошев Н.М. Ўзбекистон саноат маҳсулотлари экспортининг ташқи бозорлар билан ўзаро алоқалари. "Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт" журнали. 2025 йил. №3. Б.823.
10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Йиллик статистик тўплами. 2010-2018 йиллар. -Б 250., Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузулган.
11. Бозоров А.А. Ўзбекистоннинг экспорт салоҳиятини замонавий тенденциялари. "Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт" журнали. 2025 йил. №2. Б.201.
12. [хтtp://artislekz.com/node/2628](http://artislekz.com/node/2628). УзТрансГаз.
13. Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. "Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги". Ўқув қўлланма. Т.: "ЎзР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси" босмахонаси нашриёти, 2016. - 257 б.
14. Турғунов Х.Л. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари экспорт қилиш имкониятлари ва муаммолари. "Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар" илмий электрон журнали 2021 йил. №6. ноябр-декабр. 195-201. Б.
15. [хтtps://www.agroxxi.ru/статии/мировой-рынок-органических-продуктов-продолжает-расти.хтм](https://www.agroxxi.ru/статии/мировой-рынок-органических-продуктов-продолжает-расти.хтм).
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.10.2018 йилдаги "Мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3978-сонли Қарори.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичлари халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 18.05.2020 йилдаги ПФ-5995-сонли Фармони.
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси "Органик маҳсулотлар ва хомашёлар ҳамда органик-минерал ўғитларнинг хавфсизлигига доир айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида" 18.11.2020 йилдаги 729-сон қарори.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI